


QURILISH ISHLARI

2020-yil yanvar-mart

2020-yilning yanvar-mart oylarida Qashqadaryo viloyatida jami **1058,6** mlrd. soʻm qurilish ishlari bajarilgan boʼlib, oʼsish surʼati 2019-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **104,7 %** ni tashkil etdi.



2020-yil yanvar-mart oylarida jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **108,3** mlrd. soʻmnini tashkil etdi. Jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi oʼtgan yildagi koʼrsatkich darajasidan **8,7 %** punktga kamaygan. Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi joriy davrda qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan keskin oshganligi kuzatildi.



Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **67,5 %** i toʼgʼri kelib, oʼtgan yilning mos davridagi koʼrsatkichga nisbatan **7,4 %** punktga koʼpaydi. Shuningdek, ular hissasiga toʼgʼri kelgan qurilish ishlari hajmi oʼtgan yilning mos davriga nisbatan **118,0 %** ni tashkil qilgan holda **714,7** mlrd. soʻm miqdorida qayd etildi.

Oʼtgan yilning mos davriga nisbatan, % da



Jami qurilish ishlaridagi ulushi, % da


davomi



Norasmiy sektor hissasiga to`g`ri kelgan qurilish ishlari ulushi o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan **1,2** % punktga ko`payib, **22,3** % ni tashkil etdi va **235,6** mlrd. so`m miqdorida qayd etildi. O`tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **109,4** % ni tashkil etdi.


Davlat va nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar bo'yicha qurilish ishlari

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **48,9** mlrd. so`m yoki 2019-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sura'ti **99,2** % ni tashkil qildi, nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa **1009,7** mlrd. so`m qurilish ishlari bajarilib, o'sish sura'ti **132,3** % ni tashkil etdi. Ularning viloyatdagi ulushlari mos ravishda **4,6** % va **95,4** % ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda


2020-yil 1-aprel holatiga qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni **3098** tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **11,6 %** ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bo'lib, bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan **10,9 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **71,8 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **18,3 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **7,3 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari **11,9 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **20,9 %**) o'sishidir.



Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni, (birlikda)


	Holatiga ko'ra		O'tgan yilga nisbatan, % da
	01.04.2019-yil	01.04.2020-yil	
Qashqadaryo viloyati	2775	3098	111,6
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi	736	812	110,3
Shahrisabz	116	129	111,2
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	129	140	108,5
Dehqonobod	118	143	121,2
Qamashi	161	170	105,6
Qarshi	322	366	113,7
Koson	231	262	113,4
Kitob	121	124	102,5
Mirishkor	64	75	117,2
Muborak	162	185	114,2
Nishon	110	109	99,1
Kasbi	117	128	109,4
Chiroqchi	157	184	117,2
Shahrisabz	95	112	117,9
Yakkabog'	136	159	116,9

**Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan
qurilish korxonalar soni 01.04.2020-yil holatiga ko'ra
(birlikda)**



Ma'lumot uchun: Viloyatda eng ko'p ulushga ega bo'lган qurilish korxonalari soni bo'yicha quyidagi shahar va tumanlarda-Qarshi sh.(26,2 %), Qarshi t.(11,8 %) va Koson tumanida (8,5 %) qayd etildi.


Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qorollantirish ishlari




Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **76,6** % i yoki **811,1** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turarjoy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.



Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **63,0** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi, yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **7,8** % ni tashkil etdi.



Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **529,0** mlrd. so'm, yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **65,2** % ni tashkil etdi.



Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **219,1** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **27,0** % ni tashkil qildi.

Hududlar bo'yicha qurilish ishlari

(2020-yil yanvar-mart)


(mlrd. so'm)

	Qurilish ishlari hajmi	O'tgan yilga nisbatan, foizda	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnikaviy qayta quollantirish
Qashqadaryo viloyati	1058,6	104,7	811,1
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi	336,1	116,8	257,5
Shahrisabz	52,4	98,4	40,1
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	57,8	121,3	44,3
Dehqonobod	24,1	105,4	18,5
Qamashi	32,4	103,0	24,8
Qarshi	115,8	107,0	88,8
Koson	80,6	69,6	61,7
Kitob	67,2	105,5	51,5
Mirishkor	25,3	100,5	19,4
Muborak	43,0	104,9	32,9
Nishon	27,2	102,7	20,8
Kasbi	39,1	105,4	30,0
Chiroqchi	65,0	103,4	49,8
Shahrisabz	29,2	105,7	22,4
Yakkabog'	63,4	104,8	48,6

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari

Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **4,7 %** ni yoki **39,4 mlrd. so'mni** tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **2,8 %** punktga ko'paydi.

jamiga nisbatan ulushi, % da




Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri kelgan ulush o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **0,2 %** punktga ko'payib, **67,1 %** ni yoki **562,0 mlrd. so'mni** tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **3,0 %** punktga kamayib, **235,6 mlrd. so'mni** yoki **28,2 %** ni tashkil etdi.


Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan, % da)

2019-yil yanvar-mart



2020-yil yanvar-mart



Yirik qurilish
tashkilotlari



Kichik korxona va
mikrofirmalar


Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **28,8 %** ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **12,1 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **71,2 %** ni tashkil etib, o'z navbatida o'tgan yildagi ko'rsatkich bilan solishtirganda **12,1 %** punktga ko'paydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **30,2** % punktga kamaydi va **33,7** % ni tashkil etdi. Qolgan **66,3** % kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **30,2** % punktga ko'paydi.

(jamiga nisbatan, % da)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

(2020-yil yanvar-mart)

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	shu jumladan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha:		
		binolar va inshootlar qurilishi	fuqarolik qurilish obyektlari	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Qashqadaryo viloyati	1058,6	837,0	117,8	103,8
<i>shaharlar:</i>				
Qarshi	336,1	265,7	37,4	33,0
Shahrisabz	52,4	41,4	5,8	5,2
<i>tumanlar:</i>				
G'uzor	57,8	45,7	6,4	5,7
Dehqonobod	24,1	19,1	2,7	2,3
Qamashi	32,4	25,6	3,6	3,2
Qarshi	115,8	91,6	12,9	11,3
Koson	80,6	63,7	9,0	7,9
Kitob	67,2	53,2	7,5	6,5
Mirishkor	25,3	20,0	2,8	2,5
Muborak	43,0	34,0	4,8	4,2
Nishon	27,2	21,5	3,0	2,7
Kasbi	39,1	30,9	4,4	3,8
Chiroqchi	65,0	51,4	7,2	6,4
Shahrisabz	29,2	23,1	3,2	2,9
Yakkabog'	63,4	50,1	7,1	6,2

Hududlar bo'yicha qurilish ishlaringin o'sish sur'ati

(o'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da)



Hududlar kesimida yuqori o'sish sur'atlari bilan bajarilgan qurilish ishlari

G'uzor tumani (121,3 %):

- “Tinchlik” mahallasida arzonlashtirilgan ko‘p qavatli turar joylarning qurilishi;
- Jismoniy shaxslar tomonidan “Obod” mahallasida 4 qavatli savdo, maishiy xizmat, avtosalon binosining qurilishi;
- “Sho‘rtangazkimyo” majmuasi tomonidan xo‘jalik usulida qurilgan ishlab chiqarish binosining qurilishi.

Qarshi sh. (116,8 %):

- Amir Temur ko'chasida "AKSU" savdo majmuasining qurilishi;
- Islom Karimov ko'chasida "Yoshlar markazi" binosining qurilishi;
- "Davlat xizmatlari" binosining qurilishi;
- Mustaqillik ko'chasida "Prezident maktabi" binosining qurilishi;

Qarshi tumani (107,0 %):

- Yaxna ichimliklar ishlab chiqaradigan "Tat Cola" korxonasining qurilishi ;
- "Potron" MFY hududida jismoniy shaxslar tomonidan mahalla guzarining qurilishi;
- "Batosh" MFY hududida jismoniy shaxslar tomonidan "Avtomobilarga texnik xizmat ko'rsatish" binosining qurilishi;


Shahrisabz tumani (105,7 %):

- "Yangi qishloq" MFY hududida jismoniy shaxslar tomonidan turar joylarning qurilishi;
- "Loliston" MFY hududida jismoniy shaxslar tomonidan "Maishiy xizmat ko'rsatish" binosining qurilishi;
- "Chorshanbe" MFY hududida jismoniy shaxslar tomonidan "Savdo va maishiy xizmat ko'rsatish majmuasi" binosining qurilishi.



Hududlar bo'yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan, % da)



Joriy davrda ham jami qurilish ishlaring katta qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi jami qurilish ishlaringning **67,5 %** ni tashkil etdi. Qurilish ishlari hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning nisbatan yuqori ulushi Qarshi, Chiroqchi tumanlarida va Qarshi shahrida qayd etildi. Kichik korxona va mikrofirmalarning eng past ulushi esa Dehqonobod hamda Nishon tumaniga to'g'ri kelmoqda. Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlaringning **22,3 %** i to'g'ri kelmoqda. Qurilish ishlari hajmida norasmiy sektorning yuqori ulushi Nishon (**69,0 %**) hamda Dehqonobod (**66,3 %**) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi**

Nashr uchun mas'ul:

A. Isayev

Aloqa telefoni:

(75) 221-32-47